

SHOYIM BO‘TAYEVNING “SHO‘RODAN QOLGAN ODAMLAR” ASARIDA NOADABIY QATLAM SO‘ZLARINING QO‘LLANILISHI

Jo‘rayeva Mehriniso Safar qizi

Termiz davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

Xidirova Iroda Xolmurzayevna

Ilmiy rahbar:

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sh. Bo‘tayevning “Sho‘rodan qolgan odamlar” nomli asarida qahramonlar tilida faol qo‘llanilgan noadabiy qatlam so‘zlar, ya’ni varvarizm va vulgarizmlar haqida atroflicha fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: “Sho‘rodan qolgan odamlar” asari, varvarizm, vulgarizm, noadabiy qatlam, ajnabiy, dag‘al, qahramon munosabati, haqorat so‘zlar, lisoniy tahlil, badiiy asar leksikasi, leksik-semantik tarkib.

Badiiy matnni leksik tahlil qilish jarayonida badiiy asar tilidagi ma’nodosh, shakldosh, ko‘p ma’noli, zid ma’noli, tarixiy va arxaik so‘zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so‘zlar, chet va vulgar so‘zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilgani izohlab beriladi.[2,59] Badiiy nutq lug‘aviy jihatdan rang-barang bo‘lganligi sababli tilshunoslikda badiiy asar leksikasini o‘rganishning turli usullari mavjud. V.V. Vinogradov badiiy asar leksikasini o‘rganishda turli uslubiy qatlamlarga ajratgan holda ularning uslubiy funksiyasini o‘rganishni tavsiya etadi.[3,7] Bu usul badiiy matnni lug‘aviy-uslubiy jihatdan o‘rganuvchi tadqiqotlar uchun muhimdir, biroq matnda so‘zning badiiy obraz yaratish xususiyatlarini tahlil qilishga

mo‘ljallangan tadqiqotlar uchun esa torlik qiladi.[4,87] Badiiy matnda , ko‘pincha, so‘zning lug‘aviy ma‘nosi uning uslubiy ma‘nosini ham namoyon qiladi. Bu holatni eskirgan, tarixiy, dialektal, jargon, chet va vulgar so‘zlar misolida kuzatish mumkin. Ushbu tadqiqotimizdan ko‘zlangan maqsad Sh. Bo‘tayevning “Sho‘rodan qolgan odamlar” asarida qo‘llanilgan noadabiy qatlam so‘zlarni aniqlashdan iboratdir. Shu jihatdan, biz noadabiy qatlam so‘zlarga varvarizm va vulgarizmni kirita olamiz va ular yuzasidan fikrlarimizni davom ettiramiz:

Badiiy adabiyotda muayyan tasvir maqsadi bilan o‘zga tilga oid so‘zlar va iboralar qo‘llanilishi kuzatiladi. Tilning lug‘at tarkibiga kiritilmagan, faqatgina og‘zaki nutqda mavjud bo‘lgan bunday so‘zlardan, voqelar bo‘lib o‘tayotgan o‘ringa ishora qilish, qahramon xarakterini ochib berish uchun foydalaniladi. Bunday birliklar **varvarizmlar** (lot. “ajnabiy”) deb yuritiladi.

Tilshunoslikda **vulgarizm** (lot. “dag‘al) deb ataluvchi haqorat so‘zlarida o‘ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi qator ifoda semalari ochiq ko‘rinib turgan bo‘ladi. Bunday so‘zlar ko‘proq nominativ ma‘nolariga ko‘ra emas, ayni shu konotativ ma‘nolariga ko‘ra nutqda yashaydi. Haqorat so‘zlari badiiy asarlarda asosa, qahramonlar nutqida ishlatiladi. Lisoniy tahlil jarayonida badiiy asarga olib kirilgan vulgarizmlarni kimning(jinsi, ijtimoiy tabaqasi, mavqei, yoshi kabilar) nutqida ishlatilayotganligiga qarab guruhlash, qanday vaziyatlarda v anima sababdan qo‘llanilayotgani hamda ularning leksik-semantik tarkibini aniqlash lozim bo‘ladi.[2;5,63;40;41] Endi Sh. Bo‘tayevning “Sho‘rodan qolgan odamlar” asari tarkibida qo‘llanilgan noadabiy so‘zlar tahliliga yuzlanamiz:

Kampir,har narsaga ko‘z yosh to‘kaveradigan, bo‘lar-bo‘lmas gap-so‘zlarga aralashaveradigan **serjag‘** ayol. – **vulgarizm**

O‘zi bu mahalda ana shunaqa yetilgan molar dala-tuzdami, bog‘loqlik turgan joydami kimlargadir **bebiliski** ergashib ketib qolishar, so‘zlashni bilmaganlari uchun tillari nihoyatda shirin qovurdoq bo‘ladigan bu **harom qotgurlar** aqalli marab bo‘lasa ham egalarini ogoh qilishga qurblari yetmasdi. – **varvariz va vulgarizm.**

Padarla’nat, mol qani? – molning yo‘qliginio‘zi ko‘rib bilib kelgan bo‘lsayam, ko‘rib-bilmaganga olib bo‘kirgani g‘alati. – **Vulgarizm**

Keyingi paytlarda **qitmir** bo‘lib ketyapti, faqat artist qizlarga sochadi xolos. – **Vulgarizm**

Ammo to‘yqusdan erining jini kelib qolipti, arqonni uzipti, bitta **kaltafahm** dono aytganday. - **Vulgarizm**

Biron nima deyin desa o‘zining **qashqatayoq** qilinishini sezipti. - **Vulgarizm**

Qistaloq, qiyo boqib qaramaydiyam, eshitishni istamaydiyam, kalitlarini ko‘rsatib gerdayish bilan ovora. – **vulgarizm**

O‘zi bu **kaltakesak**ni kim chaqirdi ekan, nimayam qilib berardi u?- **vulgarizm**

Malim ham **kuchukday** gap-da!- **Vulgarizm**

Padarla’nat bolaniyam rasvo qildi, - o‘yladi sud raisi boshini kaftlari orasiga olib qisarkan. – **Vulgarizm**

Padarla’natga bu yerda pishirib qo‘yibdimikan, - deb o‘yladi amaki. – **Vulgarizm**

Padarla’natilar shu vaqtda qayerga ketishdi ekan?- o‘yladi u burchakdagi tosqumg‘onga betini yuvarkan. – **Vulgarizm**

Amaki shu xayol bilan o‘sha tomonga qarayotgandi, **chuvrindilar** orasidan kimningdir ko‘zi unga tushibdi shekilli, ko‘pdan buyon intiq kutayotgan odamini ko‘rganday chinqirib yubordi. – **vulgarizm**

Yo‘qol hammang, **gadoylar!** – deb baqirdi. – **Vulgarizm**

Churvaqalar amaki o‘tirgan o‘tinxonaga qarab mushtchalarini do‘laytirib qo‘yishdi. - **Vulgarizm**

Qo‘ni-qo‘shnilaridan ham gumonsiradi: yo‘qsa, bu xabarni tog‘lar ortida yashovchi **yalangoyoqlar**ga kim yetkazardi?- **Vulgarizm**

E, aka, **ovsar** ekanmiz, jonimizni jabborga berib umrni bekorga o‘tkazibmiz. – **Vulgarizm**

Pensaga chiqsam, postimni o‘g‘limga toshiraman. - **Varvarizm**

Nazoratchi qaddini tikladi. Shunday o‘rtoq **nachaynik!** – **Varvarizm**

Bu qamoqxonalar **chepuxa**, derdi Sunnat o‘g‘ri. – **Varvarizm**

Aytmoqchi, **kamandir**ga uchrashdingizmi? – **Varvarizm**

Buxankadan bir burda ushatib chiq. – **Varvarizm**

E, bu kishiga indamang, - deyishadi. Bu kishi **malades!**- **Varvarizm**

Raz qamaldingmi, kattaroq narsani o‘marginda, keyin bemalol borib o‘tiraver!-

Varvarizm

Eshak! – so‘kindi Sunnat o‘g‘ri tishlarini g‘ichirlatganча.- **vulgarizm**

Ikki **juvonmargni** tug‘ib katta qilgan onang senlardan nima rohat ko‘rdi?-

Vulgarizm

Unda...no‘mer to‘qson oltinchi mahbusning **konvoyligini** sizga topshiramiz. –

Varvarizm

To‘rtinchi **klassni** bitirganmiz – da! – **Varvarizm**

Vishkaga chopon olib chiqish mumkiinmas! - **Varvarizm**

Jumanazar ! to‘qson oltinchini **konvoy** bilan chiqarib yubor! – **Varvarizm**

Yetimchagina bo‘lib qolding, **yetimcha** bolam-ov!- **Vulgarizm**

Klient topib bergani uchun u go‘rkovning haqidan ham oz-ozdan urib qolar, keyingilarini ko‘paytiribroq ayting-da deb, uning bu talonchiligiga go‘rkov ham indamasdi. – **Varvarizm**

“To‘qson oltinchini”...eson-omon joyiga yetkazib qo‘yib, boshliqqa **“dolojit”** qilishni, undan rahmatnoma eshitishni o‘ylayotgandi. – **varvarizm**

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, statistik tahlil metodiga ko‘ra ushbu asar matnida jami 34 o‘rinda noadabiy qatlamga mansub so‘zlarning ishtiroki kuzatilgan bo‘lib, 20 o‘rinda vulgarizm, 14 o‘rinda varvarizm so‘zlar ishtirok etgan. Asarni tahlil qilish jarayonida boshqa so‘zlarga nisbatan ko‘proq qo‘llanilgan so‘z sifatida **padarla’nat** so‘zini keltirishimiz mumkin. Ushbu so‘z vulgarizmlar guruhiga mansub bo‘lib, asar davomida qahramonning xarakterini ochib berishda asosiy va muhim o‘rin egallagan. Ushbu noadabiy qatlam so‘zlar asar mazmuniga kesatiq, kinoya, piching, mensimaslik, nafrat, achinish kabi bir qancha qo‘shimcha ma‘no nozikliklarini bag‘ishlab turibdi. Noadabiy qatlam so‘zlarning asarda ko‘p

qo‘llashning asosiy maqsadi ham asar voqeligini yoritib berish, voqea sodir bo‘layotgan zamon va makon bilan tanishtirish, kitobxonni har tomonlama asarni tushuna olishiga zamin yaratib berishdan iboratdir. Bundan tashqari, asar matnida qahramonlar nutqida qo‘llaniladigan varvar va vulgar so‘zlar orqali qahramon xarakteri, muomalasi kabi bir qancha xususiyatlarni ham bilib olishga, shuningdek, aynan shu so‘zlar orqali qahramonlarning yaxshi yoki yomon ekanligini ajratish, ularga munosabat bildirish va yana aynan shu so‘zlar orqali ularni yaxshi ko‘rib qolish yoki ularni yomon ko‘rib qolish ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Bo‘tayev. Sh. “Sho‘rodan qolgan odamlar”. “Ijod Press” nashriyoti., 2019.
2. Qurbonova M, Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. Toshkent.: “Universitet” nashriyoti, 2010.
3. Виноградов В. В. О языке художественной литературы – С. 7.
4. Umurqulov B. Badiiy nasr jozibasi. T., “Muharrir nashriyoti”, 2021.
5. Yo‘ldoshev M, Isaqov Z, Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010